GLOBALLASHUV DAVRIDA “OMMAVIY MADANIYAT”NING MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY QADRIYATLARGA TA’SIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Xoshimov Sanjarbek Sultonbekovich
Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi
xalqaro instituti katta o’qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari ta’sirida ommaviy madaniyatning keng tarqalishi hamda uning milliy qadriyatlar, ma’naviy meros va yoshlar tarbiyasiga ko‘rsatayotgan ta’siri tahlil qilinadi. Ommaviy madaniyatning ijobiy va salbiy jihatlari, milliy o‘zlikni anglash jarayoniga ta’siri hamda yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, milliy qadriyatlarni asrashda oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, ommaviy madaniyat, milliy qadriyatlar, ma’naviyat, yoshlar, mafkuraviy immunitet, milliy o‘zlik, tarbiya.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВЛИЯНИЯ МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ НА НАЦИОНАЛЬНУЮ ИДЕНТИЧНОСТЬ И ДУХОВНЫЕ ЦЕННОСТИ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Хошимов Санжарбек Султонбекович
Старший преподаватель Международного
института пищевой технологии и инженерии

Аннотация: В данной статье анализируется распространение массовой культуры в условиях глобализации и её влияние на национальные ценности, духовное наследие и воспитание молодежи. Рассматриваются положительные и отрицательные стороны массовой культуры, её воздействие на процесс национальной идентификации, а также вопросы формирования идеологического иммунитета у молодежи. Особое внимание уделяется роли семьи, махалли и образовательных учреждений в сохранении национальных ценностей.

Ключевые слова: глобализация, массовая культура, национальные ценности, духовность, молодежь, идеологический иммунитет, национальная идентичность, воспитание.

A SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE IMPACT OF MASS CULTURE ON NATIONAL IDENTITY AND SPIRITUAL VALUES IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Khoshimov Sanjarbek Sultonbekovich
Senior Lecturer at the International Institute of Food Technology and Engineering

Annotation: This article analyzes the spread of mass culture under the conditions of globalization and its impact on national values, spiritual heritage, and youth education. The positive and negative aspects of mass culture, its influence on the formation of national identity, and the development of ideological immunity among young people are discussed. The article also highlights the role of family, community institutions, and educational organizations in preserving national values.

Keywords: globalization, mass culture, national values, spirituality, youth, ideological immunity, national identity, education.

Bugungi globallashuv sharoitida ommaviy madaniyat jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari, kino, musiqa va reklama vositalari orqali tarqalayotgan ommaviy madaniyat mahsulotlari yoshlar dunyoqarashi, turmush tarzi va qadriyatlar tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, u zamonaviy bilimlar, yangi texnologiyalar va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, milliy an’analar, urf-odatlar va ma’naviy qadriyatlarning zaiflashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, iste’molchilik kayfiyati, individualizm va yengil-yelpi hayot tarzini targ‘ib qiluvchi g‘oyalar yosh avlodning milliy o‘zligidan uzoqlashish xavfini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan mehr-oqibat, kattalarga hurmat, oilaparvarlik, mahalla birdamligi kabi qadriyatlari jamiyat barqarorligining muhim omili hisoblanadi. Shu bois ommaviy madaniyatning salbiy ta’sirlariga qarshi kurashishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash, yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, ta’lim-tarbiya tizimida milliy meros va madaniyatni keng targ‘ib etish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlarga tayangan holda global axborot makonida faol ishtirok etish, ommaviy madaniyatning ijobiy jihatlaridan oqilona foydalanish va salbiy ko‘rinishlariga tanqidiy yondashish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Globallashib borayotgan dunyoda bugungi kunda sodir bo‘layotgan turfa voqea-hodisalarni kuzatgan kishi ma’naviyat aslida insoniyatning qanchalik beqiyos ne’mati ekanligini teran anglaydi. Afsuski, shunday bebaho milliy madaniyat o‘rniga qandaydir “ommaviy madaniyat”ni zo‘rma-zo‘raki tiqishtirayotgan buzg‘unchi kimsalar ham kam emas... Ular “ommaviy madaniyat” niqobi ostida targ‘ib etayotgan turli hayosiz filmlar, suratlar milliy qadriyatlarimizga aslo to‘g‘ri kelmasligini tushunish qiyin emas. Aslida “ommaviy madaniyat” haqiqiy madaniyatning mohiyatiga mutlaqo zid hisoblanadi. Mutaxassislar fikricha, “u insonni ma’nan majruh etadigan, uning ma’naviy dunyosini buzadigan, oxir-oqibat jon saqlashdan o‘zga maqsadi bo‘lmagan bir maxluq darajasiga tushirib qo‘yadigan, xalqni esa olomonga aylantiradigan hodisadir. Shuning uchun ham bunday madaniyatni “olomon madaniyati” deyish mumkin”. Ba’zi mamlakatimizga chetdan kirib kelayotgan tovarlar reklama qilinayotganida e’tibor bersangiz, yonida siyosiy “mahsulot” – qandaydir g‘oya ham bo‘lishi mumkinligini anglaysiz. Bu hol esa asta-sekin milliy madaniyatga yot qadriyatlarga ko‘nikma hosil qildirishi, begona madaniyat bilan “emlanayotgan” odamning etini o‘ldirishi bilan xatarlidir. Bu emlashdan so‘ng “ommaviy madaniyat”ning “og‘ir formalari”dan ham seskanmaslik, begonasiramaslik kayfiyati hukmronlik qila boshlaydi”.

Bunday “ommaviy madaniyat”ni tiqishtirishlaridan maqsadlari moddiy boylik orttirish ekanligi ko‘rinib turibdi. Ruhshunoslar fikricha, bir fikrni tinimsiz uqdirish orqali individga kuchli ta’sir o‘tkazish, uni o‘z yo‘rig‘iga solish mumkin ekan, demak, shu usulda yoshlar ongiga salbiy ta’sir o‘tkazish xavfi yo‘q emas. Yoshlarga qanday tushuntirilsa, ular kutilganidek qabul qilaverishlari mumkin.

“Ommaviy madaniyatning” eng muhim ta’sirlaridan biri milliy o‘zlikni anglash jarayonida namoyon bo‘ladi. Chunki har bir xalqning o‘ziga xos madaniy qiyofasi, tarixiy xotirasi va ma’naviy merosi mavjud. Ommaviy madaniyat vositasida kirib kelayotgan begona qadriyatlar ayrim hollarda yoshlarning milliy madaniyatga bo‘lgan qiziqishini susaytirishi, ona tiliga, milliy adabiyot va san’atga e’tiborning kamayishiga olib kelishi mumkin. Natijada madaniy identifikatsiya inqirozi yuzaga kelib, shaxs o‘z milliy ildizlaridan uzoqlasha boshlaydi.

Ma’naviyati yuksak insonga turli g‘oyalar bilan ta’sir o‘tkazish qiyin. Shuning uchun vayronkor g‘oyalar asosan, yoshlar ongini zaharlashga qaratiladi. Undan kelajagimiz bo‘lmish yoshlarni asrash uchun ularni yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalashimiz lozim. Yoshlar ommaviy madaniyatning asosiy iste’molchilari hisoblanadi. Ularning ongiga internet, kino, seriallar va ijtimoiy tarmoqlar orqali singdirilayotgan g‘oyalar axloqiy qarashlarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Zo‘ravonlik, individualizm, yengil hayot tarzi va haddan tashqari moddiy manfaatlarni targ‘ib qiluvchi mahsulotlar yoshlarning ma’naviy kamolotiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli yoshlarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish va axborotni saralash madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda oila va mahalla muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Oila farzandga dastlabki ma’naviy tarbiyani beradigan maskan bo‘lsa, mahalla esa jamiyatdagi hamjihatlik va birdamlikni mustahkamlovchi omildir. Ommaviy madaniyatning salbiy oqibatlarini

kamaytirishda ota-onalar va mahalla faollarining ma’naviy-ma’rifiy faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ularni milliy madaniyat namunalariga jalb qilish samarali vositalardan biridir.

Yurtimiz istiqlolga erishgach, milliy ma’naviyat mohiyatini teranroq anglay boshladik. Aytish joizki, sobiq mustabid tuzum davrida ma’naviyat, inson ruhiy olami, adolat, qonun ustuvorligi, milliy-axloqiy qadriyatlar to‘g‘risida asosli fikrlarni eshitish amri mahol edi. Ma’naviy barkamol inson kamoloti uchun suv bilan havodek zarur ma’naviy qadriyatlar qadrini mustaqillik sharofati bilan teran anglab yetdik.

Bugungi globallashuv sharoitida internet, radio va televideniye imkoniyatlari cheksizligi haqida ko‘p gapirilmoqda, asosli maqolalar yoritilmoqda. Bunday imkoniyatlardan aslida yoshlar ongini yot g‘oyalardan asrab qolish yo‘lida samarali foydalanish davr taqozosidir. Ana shundagina “ommaviy madaniyat”ning yoshlar ongiga ta’siri kamayib, asta-sekin barham topib ketishi ham mumkin. Shu bilan bir qatorda yoshlar qalbida milliy qadriyatlarimizga nisbatan mehr uyg‘otib borish maqsadga muvofiqdir. Shunda yoshlar orasida g‘arbona ideallarga ko‘r-ko‘rona ergashish kabi holatlar urchib ketmaydi. Yoshlar qalbida mafkuraviy immunitetni to‘g‘ri shakllantirish imkoniyatlari kengayadi. Mafkuraviy immunitet asosan ta’lim-tarbiya jarayonida hosil qilinadi. Yoshlar ongu shuurida mafkuraviy immunitet puxta bilim olish, his-tuyg‘ular, muayyan ko‘nikmalar vositasida shakllantiriladi. Ayrim mutaxassislar fikricha, taraqqiyotning hozirgi bosqichida xalqlar orasidagi axborot aloqalari jadal kengayib borayotganligi ko‘plab foyda bilan bir qatorda ma’naviy zarar keltirish hollari ham uchrab turganligi asoslab berilayotir. Shu narsa ayonki, bugungi kunda puxta bilim egallamagan yoshlar tanazzulga yuz tutishi mumkin.

Buning uchun oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya bilan bir qatorda targ‘ibot ishlarini ham to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish joizdir. Aytish mumkinki, ayni

paytda qator oliy ta’lim muassasalarida bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shaxs kamolotining mezoni hisoblangan ma’naviyat va ma’rifat shu tariqa jamiyatimizda o‘ziga xos voqelikka aylanib boraveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008.

2. Саидов У. Оломон маданияти.//Тафаккур, 2008. № 2.

3. Тошбоев О. “Оммавий маданият” таҳдиди.//Тафаккур, 2008, № 1.

4. Санжарбек Султонбекович Хошимов ВАН ЯН МИН ФАЛСАФИЙ ТАЪЛИМОТИНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ВА ГНОСЕОЛОГИК ҚИРРАЛАРИ // Academic research in educational sciences. 2020. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/van-yan-min-falsafiy-talimotining-manaviy-ahlo-iy-va-gnoseologik-irralari

5. Хошимов, С. "Ўзбекистонда узлуксиз маънавий тарбия концепциясининг амалиётга жорий этиш масаласи." Yosh Tadqiqotchi Jurnali 1.5 (2022): 181-187.

6. Sultonbekovich, Xoshimov Sanjarbek. "GLOBALLASHUV JARAYONIDA SIYOSIY MADANIYATNING O ‘ZIGA XOSLIGI." JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS 3.4 (2022): 113-117.

7. Хошимов С. С., Тожибоев У. У. ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИНТЕРНЕТ-КУЛЬТУРЫ У МОЛОДЕЖИ // Экономика и социум. 2022. №11-2 (102). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-formirovaniya-internet-kultury-u-molodezhi (дата обращения: 11.06.2026).

8. Xoshimov S.S. INSON TUSHUNCHASINING G‘ARB VA SHARQ FALSAFASIDAGI GNOSEOLOGIK TAHLILI // Экономика и социум. 2024. №5-1 (120). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/inson-tushunchasining-g-arb-va-sharq-falsafasidagi-gnoseologik-tahlili (дата обращения: 11.06.2026).

9. Hoshimov S. SARQ VA G‘ARB FALSAFIY TAKKIRISHDA INSON MUAMMOLARINING TABRINI // Ekonomi i sotsium. 2021. №11-1 (90).

URL: https://cyberleninka.ru/article/n/interpretation-of-human-problems-in-philosophical-thinking-of-east-and-west (ma'lumotlar obrashcheniya: 11.06.2026).

10. Мадаминов, А.А. (2019). Актуальные проблемы социализации молодежи в условиях глобализации. Экономика и социум, (4 (59)), 62-64.

11. Мадаминов, А. А. (2023). Инновационные технологии важный фактор развития Узбекистана (на примере образования). Экономика и социум, (12 (115)-1), 1210-1212.